

Zararli bakteriya va viruslardan himoyalovchi “suyuq qo’lqop”

Bugungi kunda ko’pgina sohalar qatori tibbiyot va farmatsevtika sohalarida ham samarali tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadqiqotlar natijasida insonlar salomatligini saqlash va mustahkamlashga xizmat qiluvchi dori preparatlari, tibbiy vositalar ishlab chiqarish yo’lga qo’yilmoqda.



Bugungi kunda bakteriya va viruslardan himoyalovchi, zararsizlantiruvchi antiseptik vositalar bo’lib, respublikamiz dorixonalari, bozor va do’konlarida ularning turli xilini uchratish mumkin. Asosan, antiseptik va dezinfeksiyalovchi vositalar yurtimizga chet eldan import asosida kirib keladi. Ular tarkibi xlor va uning birikmalari yoki spirt asosida tashkil topgan. Tabiiyki, xorijdan keltirilgan preparatlar qimmat turadi. Ba’zi kishilarda zararsizlantiruvchi vositalar tarkibidagi xlor moddasiga allergiya qo’zg’atishi mumkin. Shu sababli, zarari kam, ekologik xavfsiz mahsulotlarga ehtiyoj tug’iladi. Bu yo’nalishda O’zbekiston Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari ham samarali izlanishlar olib bormoqdalar. Institutda bakteriya va viruslardan himoyalovchi “suyuq qo’lqop” vazifasini bajaruvchi polimerlar asosidagi yangi avlod preparatlarini sintez qilish, ularni olish texnologiyasini ishlab chiqish bo’yicha ilmiy tadqiqotlar o’tkazilmoqda.

Mazkur vositaning asosini nanotexnologiyalarni qo’llagan holda tabiiy polimerda shakllantilgan kumush nanozarralari tashkil etib, dezinfeksiyalovchi va antiseptik xususiyatini namoyon qiladi. Maxsus purkaluvchi sprej idishga qadoqlangan vosita qo’lga sepilganda, u soniya ichida yupqa shaffof qo’lqop hosil qiladi va qo’lni zararli moddalar, virus, mikroob va bakteriyalardan 24 soatgacha himoyalaydi.